



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" QISSASIDA ISMLAR TIPOLOGIYASI

Maxammadaliyeva Nozimaxon

Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada onomastika sohasining rivojlanish davri va antroponimikaning takomillashuvi haqida fikr yuritilgan. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi misolida qo'llanilgan ismlarning an'anaviy va ramziy funksiyalari, shakliy tuzilishi, ism orqali badiiy matnga ma'no yuklatilishi va bugungi kundagi ahamiyati ko'rsatib o'tildi.

Annotation. In this article, the traditional and symbolic functions of names used in O'tkir Hoshimov's novel "Dunyoning ishlari", their structural features, the semantic load they add to the literary text and their relevance in the modern context are discussed.

Kalit so'zlar: onomastika, badiiy matn, antroponim, tipologiya, ramziy funksiya, milliy-an'anaviy ismlar, ramziy ismlar.

Key words: onomastika, literary text, anthroponym, symbolic function, national-traditional names, symbolic names.

XX asrning 60-70-yillarida o'zbek tilshunosligida bir qator ilmiy yo'nalishlar vujudga kela boshladi. Shulardan biri, onomastika ham aynan shu davr tamoyillaridan ajralmagan holda yangi soha sifatida o'zbek tilshunosligiga kirib keldi. "Onomastika"(onomastike)–yunonchadan olingan bo'lib "nom qo'yish san'ati" degan ma'noni anglatadi."

Onomastika–tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi hisoblanadi. Turli xil tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, "onomastika" termini "antroponimika" tarzida ham qo'llanilib kelishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Onomastika bu umumiy bir tizim va unda quyidagi bo'limlar mavjud:

- *antroponimika*–kishilarning atoqli nomlarini;
- *toponimika*–geografik hududlarning atoqli nomlarini;
- *teonimika*–xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlarini;
- *zoonimika*–hayvonlarga qo'yilgan (shartli) atoqli nomlarni;
- *kosmonimika*–fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarlarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlarini;
- *astronimika*–turli xil osmon jismlarini va sayyoralar nomini;

Demak, onomastika sohasining ichida yuqoridagi barcha bo'limlarni hisobga oladigan bo'lsak, har biri keng qamrovli manbalarga ega. Shulardan, antroponimika shaxslarning ismlari bilan shug'ullanadi va badiiy matnda ramziy, an'anaviy va obrazlarning nomlari orqali ma'no yuklashini batafsil o'rganuvchi bo'limi hisoblanadi. Ushbu sohada o'zbek tilshunosligida ko'plab





olimlarni tadqiqotlarini ko'rish mumkin. E.A. Begmatov "O'zbek tili antroponimikasi", G.Sattorov, R.Xudoyberganov, S.Kenjayeve, N.Nazarova kabi olimlar antroponimika sohasini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shishgan.

Har bir badiiy asar ham ma'lum bir maqsad yo'lida yozilganidek, undagi ismlar, obrazlar va ularning o'zaro munosabati, jarayon muhiti ham ma'lum ma'no yukiga egadir. Xususan, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida ham ismlar tasodifiy qo'llanilmagan, ular orqali muallif o'z zamonasining ijtimoiy-ma'naviy holatini, insoniy qadriyatlarini va milliy tafakkur omilini ifodalashga erishgan. Ushbu asar muallif tili bilan aytganda "Dunyodagi barcha onalarga bag'ishlanadi". Asar kichik-kichik hikoyalardan tashkil topgan bo'lib, yozuvchining o'zi guvoh bo'lgan voqealarini, obrazlarini badiiy yoritib berishga erishadi. Qahramonlarning ismlarini esa ko'pini shundoqligicha asarga olib kiradi, ba'zilariga esa ramziy ma'no anglatishi uchun ma'lum o'zgartirishlar kiritadi. Asarda xarakter xususiyatlarini, inson ichki ruhiyatini ochib berishda obrazlarning ismlari alohida ahamiyatga ega. Shu jumladan, muallif mahoratini ismlar orqali badiiy matnning g'oya ifodasini ko'rsatib bergani bilan ham baholansa bo'ladi. Umuman olganda, barcha asarlarda ham qahramonlarning ismi muallif uchun o'quvchiga badiiy niyatni to'laqonli va aniqroq yetkazib berishda hamda qahramonning taqdirini belgilashda muhim omil ekanligi hisobga olinadi. Xususan, V.A.Nikonov badiiy matndagi antroponimlarning funksional xususiyatlari haqida "personajning ismi-badiiy obrazni yaratuvchi vositalardan biri bo'lib, u personajning ijtimoiy mansubligini tavsiflashi, milliy va mahalliy koloritni ifodalashi, agarda voqeyilik o'tmishda sodir bo'lgan bo'lsa, tarixiy haqiqatni qayta yaratishi mumkin(agar ism haqiqatga zid ravishda tanlangan bo'lsa, barbod qilishi mumkin)". Demak, muallif qahramon yoki o'quvchiga personajning ismi (laqabi,familiyasi) ni ma'lum estetik ta'sir etish maqsadida tanlashi mumkin. Shu ma'noda, u badiiy adabiyot tili bilan aytganda "obraz" maqomiga ko'tariladi. Shuningdek,ism qahramonning (*Noyib to'ra* davom etdi: - Ikkala boy bir bo'lib eng yaxshi advokatga ikki quloch ariza yozdirishib, to'ppa-to'g'ri hokim to'raga tutibdilar.) ijtimoiy mansubligiga ishora qiladi. Bu bilan ismlar ham deytik funksiya bajarishi mumkin. Tarixiy qahramonlar dabiyy matnga olib kirilishi uning ishonchlilik darajasini oshiradi.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida o'ttiz uchta hikoyachalar mavjud bo'lib, har birida ikki va undan ortiq obrazlar qatnashgan. Asardagi ismlarni ikkiga bo'lib tahlil qilishimiz maqsadga muvofiq:

- 1)milliy-an'anaviy ismlar;
- 2)ramziy ismlar.





Qissadagi “Hiyonat” hikoyasini oladigan bo’lsak, adib to’rt qahramonning taqdirini bir joyda kesishtiradi, ya’ni Damin, Qahramon, do’sti va yigitning sevgan insonining ismlari va taqdirlari orqali badiiy niyat ochiqqlanadi. Masalan,

–*Eshitdinglarmi, bugun kino kelarmish.*

–*Urush kino ekan.*

Akalarim kinoga borsa, men qarab turarmidim.

–*Men ham boraman, –dedim qaysarlik bilan.*

–*Bopti, borasan. Aytgan ishlarimizni hammasini qilsang, oboramiz...*

Akamning Damin degan o’rtog’i meni ko’rib so’radi:

–*Sen qayoqqa?*

–*Kinoga!-dedim ishonch bilan. Damin o’ylanib qoldi.*

–*Bo’lmasa, botinkangni kiyib chiq,–dedi oyog’imga qarab...(O’Hoshimov.*

“Dunyoning ishlari”)

Shunday qilib Damin bolani aldaydi va akalari bilan birga ketib yuboradi. Damin ismining ma’nosi “sabotli”, “mustahkam”, “qunt-toqatli”, Qahramon “dovyurak”, “qo’rqmas” ma’nolarini anglatishiga qaramay ular buning aksini qilishadi ya’ni hiyonat yo’lini tutishadi. Bu orqali adib hayotda o’zini yaxshi ko’rsatib, aslida esa qiyin vaziyatlarda pand beradigan insonlarni ochib berish uchun ismlardan unumli foydalanadi. Jumladan, do’stim degani (hikoyada “onamning beshinchi” o’g’li deya tarflanadi) bilan ham yaxshi ko’rgan qizi bilan hiyonatiga guvoh bo’ladi. Yuqorida keltirilgan ismlarning harflar tizmasiga e’tibor beradigan bo’lsak, ikkalasida ham faqat jarangli undoshlar qatnashib kelmoqda. Bilamizki, ta’sir doirasini kuchaytirishda jarangli undoshlar muhim o’rin tutadi, o’quvchiga birinchi yetib borgandayoq e’tiborini tortishi mumkin. Adib aynan shuni xohladi, avval qahramon haqida yaxshi fikr uyg’otib, barcha narsa ham ko’ringani kabi emasligini keyingi noma’qul xiyonatlari orqali ochib berdi. Demak, obrazlar nomining asl ma’nosini kitobxonga anglatish uchun kesatiq, achiq haqiqatlarni ifodalashda ramziy-satirik ma’no sifatida ham qo’llay olish mumkin ekan, albatta, bunda ijodkor mahorati muhim o’rin tutadi. Badiiy asarda har bir vosita, har bir detal osonlikcha tanlanmaydi, badiiy maqsadning ifodasini ko’rsatish uchun yuqoridagicha antonimik vaziyatlardan ham asosli foydalaniladi.

Asarlarda qo’llanilgan antroponimlar milliy madaniyat, tarixiy an’analar hamda qahramon xarakterini yoritishda muhim vosita hisoblanadi. Ismlar tarkibidagi leksik-morfologik unsurlar obrazning ijtimoiy mavqeyi, jinsiy va tashqi belgilarini ochishga xizmat qiladi. Shuningdek, antroponimlarning semantik va stilistik xususiyatlarini tahlil qilish badiiy matnning mazmun-mohiyatini chuqur anglashga imkon yaratadi.

